

“O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyatida 2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Hisobot

Kombinatning Korrupsiyaga qarshi chora tadbirlari dasturi bajarilganligi to‘g‘risida umumiy ma’lumot.

“O‘zmetkombinat” AJ da 2024-yil hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora–tadbirlar Dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

Hisobot davrida 43 ta belgilangan tadbirlarning bajarilishi to‘liq amalga oshirilgan. “O‘zmetkombinat” AJ da korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida ishonch telefonlari va telegram bot kanali, rasmiy veb–saytda esa “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘yicha alohida sahifa ochilgan va unda sohaga oid ichki me‘yoriy va normativ hujjatlar va yangiliklar yoritib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me‘yorlarga va Qonun hujjatlariga qat’iy amal qilishga doir Kombinat Boshqaruv Raisi–Bosh Direktor tomonidan 2 ta tadbir o‘tkazildi va tadbirda Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida mazkur sohadagi kamchiliklar qayd etildi va tegishli topshiriqlar berilgan.

Shu bilan bir qatorda, Kombinatning rasmiy veb–sayti hamda “Metallurg Minbari” gazetolari orqali barcha xodimlar, hamkorlar va Bekobod shahri aholisiga Kombinat Boshqaruv Raisi-Bosh direktori D.T.Axmedovning korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga birgalikda qarshi kurashish zarurligi bo‘yicha Murojaatlari yetkazildi.

Kombinat Boshqaruv Raisi-Bosh direktor o‘rinbosarlari tomonidan sohaga oid **12 ta** maqolalari “Metallurg Minbari va “Za Metall” gazetalarida chop etilib, ushbu maqolalarda sohada amalga oshirilayotgan ishlar qayd etilishi bilan birga, ushbu maqolalar asosida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari xodimlarining mazkur sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun davra suhbatlari o‘tkazilgan.

Hisobot davrida Kombinat tomonidan 2024-yil 22-avgust kuni tasdiqlangan 1163 i/ch sonli va 1228 i/ch-sonli buyruqlar asosida “ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi” Xalqaro standartini qo‘lga kiritish uchun ichki audit o‘tkazildi va 2024-yil 10-oktyabr kuni tasdiqlangan 1397 i/ch–sonli buyruq asosida tashqi audit Sertifikatlash organi tomonidan berilgan nomuvofiqlikni bartaraf etish va tavsiyalarni amalda joriy etish ishlari bajarildi. 2024-yil 26-oktyabr kuni “O‘zmetkombinat” AJ ning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi “ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi” Xalqaro standartiga muvofiqlik sertifikatini qo‘lga kiritdi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora tadbirlar Dasturiga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. “O‘zmetkombinat” AJ da korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosat va tartib taomillar.

1. Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki me‘yoriy hujjatlar va tartib qoidalar, Kombinat Kuzatuv Kengashi 2024-yil 19-yanvar 3-sonli bayonnomasi qarori bilan:

- “Axloq Kodeksi”;
- “Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati” tasdiqlandi.

Kombinat Kuzatuv Kengashi 2024-yil 24-may 7–sonli bayonnoma qarori bilan:

- “O‘zmetkombinat” AJ bo‘yicha “Sovg‘alar berish va qabul qilish va biznes mehmondo‘stlik Siyosati”;
- “O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish Tartibi” tasdiqlandi.

Kombinat Kuzatuv Kengashi 2024 yil 10-oktyabr kuni 13–sonli bayonnoma qarori bilan:

- “O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida kontragentlarni (shartnoma munosabatlarini tuzishda “kontragentlarga nisbatan tegishli tekshiruv” tamoyili asosida) tekshirishga oid Yo‘riqnoma”

- “Xaridlarni amalga oshirishda narxlarning obyektivligini tekshirish Reglamenti”;

- “O‘zmetkombinat” AJ ning Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish Siyosati tasdiqlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilgan barcha ichki me‘yoriy hujjatlar elektron shaklda axborot olish uchun Kombinatning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.

Bundan tashqari, ISO 37001:2016 xalqaro standarti 7.3. (xabardorlik) bandi talablariga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me‘yoriy hujjatlar To‘plam sifatida chop etildi va Kombinat barcha xodimlariga tarqatildi, tanishtirish va tushuntirish ishlari muntazam ravishda olib borilmoqda.

Shuni ta’kidlash lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga olishga doir 17 ta ortiq ichki me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, Kombinat ichki buyruqlari va Kuzatuv Kengashi bayonnoma qarorlari bilan tasdiqlangan hamda xodimlar bilan tanishtirish ishlari yakunlanib, hozirda amaliyotga tadbiq etish ishlari olib borilmoqda.

2. “O‘zmetkombinat” AJ da korrupsiyaviy xavf–xatarlarni baholash va ushbu sohadagi o‘tkazilgan ichki audit natijalari.

Kombinatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va chek qo‘yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart sharoitlarni bartaraf etish maqsadida 2024-yil mart ioyida Kombinat 9 direksiyasi va 89 ta funktsiyasi faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlari korrupsiyaga qarshi auditdan o‘tkazildi hamda sohada qabul qilingan qonunchilik va ichki me‘yoriy hujjatlar to‘g‘risida xabardorlik bo‘yicha xodimlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi.

Mazkur so‘rovnomada 78 nafar Kombinat xodimlari qatnashishdi. Ulardan 88,5% Kombinat Komplayens nazorat tizimi ish faoliyatini va natijadorligini yaxshi baholagan, 76,9 % korrupsiya holatlari haqida xabar berganda ta’qibga uchramasligi va o‘zi haqidagi ma’lumotlar oshkor bo‘lmasligiga ishonishi, 93,6 % korrupsiya holatlari bo‘yicha kimga murojaat qilishni bilishi, 14, 1% Kombinat faolitada manfaatlar to‘qnashuvi, mahalliychilik, urug‘ aymoqchilik yoki tanish bilishchilik holatlari mavjudligi aniqlandi va natijada korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi tushunchalar tushuntirish ishlarini ko‘paytirish, xodimlarga axborot materiallarini tarqatish, shu mavzularda seminar va treninglar o‘tkazish zaruruligi qayd qilindi.

Audit jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari hamda markaziy apparatidagi barcha lavozimlar tahlil qilinib, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar asosida “O‘zmetkombinat” AJ ning xavf xatarlar xaritasi tuzildi. Ushbu xaritada, Kombinatning 59 ta lavozimlarda korrupsiya xavfi “yuqori”, 18 tasida “o‘rta” va 7 tasida “past” ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, Kombinatning korrupsiyaviy xavf xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakllantirilib, korrupsiyaviy xavf xatarlarni minimallashtirish uchun 2024-yil 22-yanvar kuni Kombinat xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida rejalashtirilgan tadbirlar Ish Rejasi, 2024-yil 20-may kuni Kombinat, uning tarkibiy bo‘linmalari va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi, “Kombinatda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi hamda boshqa qoidabuzarliklarni oldini olish yo‘nalishida tarkibiy bo‘linmalarning majburiyatlari mavzusi bo‘yicha” Maxsus o‘quv kursi dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotda tadbiq etilmoqda.

3. “O‘zmetkombinat” AJ tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparatida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” talablari asosida korrupsiyaviy omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida Kombinatning tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparati xodimlari tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasini to‘ldirilishi belgilab qo‘yilgan. Ushbu Nizom talabini bajarish maqsadida Kombinatning barcha xodimlari 2024-yil uchun manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shaklini hamda rotatsiya qilinganda va ishga qabul qilinayotgan barcha xodimlar manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalarini to‘ldirishdi va barcha holatlar Kombinat Odob axloq Komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilib, tegishli xulosa va takliflar berildi.

To‘ldirilgan deklaratsiyalar Odob axloq komissiyasi tomonidan tahlil qilinganda, Kombinatning 3 ta xodimi 3 ta tadbirkorlik subyektlarida o‘z ulushiga yoki rahbar lavozimlarni egallaganliklari, 979 ta xodimlarning Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida yaqin qarindoshlari faoliyat yuritib kelayotganliklari ma’lum bo‘ldi.

Kombinat xodimlariga tegishli tadbirkorlik subyektlari Kombinat bilan 2023-2024 yillar davomida o‘zaro shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirmagan.

Shu bilan birga, xodimlarga “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiq 2025–yil 15-yanvar kuniga qadar ularning shaxsiy manfaatdorligi bo‘lgan yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi predmeti bo‘lgan holatlarni bartaraf etish maqsadida tadbirkorlik subyektida rahbarligi yoki ta’sischi ligidan voz kechish choralari ko‘rilmogda.

Kombinat Komplayens xizmati va Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti tomonidan Kombinatning Ishlab chiqarishni ta’minlash departamenti faoliyati monitoring qilinganda 1 ta xodimda haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holat aniqlangan. Kombinatda korrupsiogen omillar oldini olish hamda mazkur holatni bartaraf etish maqsadida 2024-yil 24-aprel kuni 2885k-sonli buyruq qabul qilingan.

2024-yil avgust oyidan Axborot texnologiyalari direktsiyasi tomonidan Kombinat barcha xodimlari uchun manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalarini onlayn vaqt rejimida to‘ldirish tizmini ishga tushurildi.

4. “O‘zmetkombinat” AJ da xaridlarni tashkil etish jarayonida quyidagi tadbirlar amalga oshirilgan.

Kombinatda hisobot davrida umumiy hisobda O‘zbekiston Respublikasining “Xaridlar to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabridagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida 3959ta shartnomalar rasmiylashtirilgan. Shulardan 1234tasi elektron do‘kon, 6 tasi kooperatsion portal, 445 tasi maxsus savdo maydonchalaridagi elektron birja savdolari, 256 tasi boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, 142 tasi yagona yetkazib beruvchilar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari, 7 tasi tender, 334 tasi eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirilgan. Kombinat tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri yagona yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shimcha shartlar kiritilmoqda.

2024-yil hisobot davrida Kombinatning Tovarlar, ish va xizmatlar xariq qilish siyosati talablariga muvofiq Komplayens xizmati tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlab olish va tender bo‘yicha tovarlar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish narxlarini ekspertizadan o‘tkazish doirasida 539 talabnoma ko‘rib chiqilishi natijasida narxlarning 23 mlrd 98 million so‘mga oshganligi aniqlanib, ushbu holatlar yuzasidan Ishlab chiqarishni ta’minlash departamenti tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan xarid qilish tartib-taomillarining narx parametrlarini optimallashtirish

bo'yicha tegishli tavsiyalar berilgan va Kombinatning moliyaviy mablag'lari samarasiz ishlatilishi oldi olindi.

Hisobot davrida "O'zmetkombinat" AJ ning 2241ta amaldagi va potentsial kontragentlarining ishonchliligi va xalqaro, G'arbiy va Yevropa Ittifoqi davlatlari sanksiyalariga muvofiqligi tekshirildi va ushbu tekshiruvlar yuzasidan 140ta holatlar aniqlandi. Kontragentlarni lozim darajada tekshirish doirasida, belgilangan talablarga muvofiq kontragentlarning davlat byudjeti oldidagi qarzlar (*solliqlar, MIB oldidagi qarzlar*) mavjudligi, uning faoliyati (*ishlayotgan korxona yoki faoliyati to'xtatilganligi*), manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi, uning ofshor zonalarida ishlashi, bankrotlik xavflari va boshqa xavflarga nisbatan tekshirildi.

5. Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallarida ishga qabul qilish jarayoni qonunchilikka muvofiqligi va mehnat munosabatlarida amaldagi qonunchilik buzilish holatlari.

Mazkur yo'nalishda korrupsiogen omillarni bartaraf etish maqsadida Kombinatda mavjud bo'sh o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy ravishda Kombinat rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy kanallarda berib borilmoqda. Hisobot davrida 163ta lavozimga fuqarolarni ishga ochiq tanlov, ya'ni test va suhbat sinovlari orqali o'tkazilgan hamda sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatish ta'minlangan.

Shu bilan birga, "Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma" asosida 163 ta nomzod o'rganilgan va tegishli xulosalar berilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tavsiyasi va ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi" Xalqaro standarti talabi asosida xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurash talablari va bandlari kiritildi.

Mehnat munosabatlarida qonun buzilishi holatlarini va aloqa kanallari orqali yuborilgan murojaatlarni o'rganish maqsadida hisobot davrida Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallarida jami 83 xizmat surishtiruvlari va o'rganish ishlari o'tkazilgan, natijalari bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlangan va tegishli chora-tadbirlar ko'rilgan.

Natijalar bo'yicha quyidagilar amalga oshirildi:

- 78 nafar xodim ishdan bo'shatildi;
- 244 nafar xodimga "xayfsan" berildi;
- 106 nafar xodim ish haqining ma'lum foizidan mahrum etildi;
- 74 nafar xodimga ogohlantirish berildi;

Kombinat xodimlarining aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan 52 ta material huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Ichki tekshiruv va inventarizatsiya jarayonida 3 156 722 477,2 so'mlik tovar va materiallarning o'g'irlanishi va zararlanishi aniqlanib, materiallar ko'rib chiqish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Jami 1 889 606 719,2 so'm zarar undirilib, shundan 1 031 309 954,9 so'mi Kombinat hisob raqamiga to'langan va 858 296 764,3 so'm huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o'tkazilgan. Yetkazilgan zararning qolgan qismini qoplash choralari ko'rilmogda.

Ikkilamchiqorametallar filiali Xavfsizlik boshqarmasi bo'limi tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda Respublika hududida qora metall parchalari va chiqindilarining noqonuniy aylanishiga qarshi hamkorlikda tadbirlar o'tkazilib, natijada 1365.811 tonna jami 3 414 527 500,0 so'mlik metall parchalari davlat hisobiga musodara qilindi. Profilaktik suhbatlar davomida 3 085 657 500,0 so'mlik 1234,263 tonna qora metall parchalari va chiqindilari ixtiyoriy ravishda topshirildi.

6. “O‘zmetkombinat” AJ, uning markaziy apparati tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish.

“O‘zmetkombinat” AJ da 2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan ishlar chora tadbirlar Dasturiga muvofiq Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish rejalashtirilgan.

Mazkur rejaga muvofiq Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari bilan o‘zaro hamkorlik qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora tadbirlarni tahlil qilish hamda sohaga oid ichki me‘yoriy hujjatlarni tadbiq etish va filiallardagi ichki nazorat bo‘limi xodimlariga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida hisobot davrida “Ikkilmchiqorametallar” departamenti filiallarida monitoring tadbirlar o‘tkazildi. O‘tkazilgan tadbirlar natijalari bo‘yicha tegishli takliflar va amaliy yordam ko‘rsatilgan.

Mazkur tadbirlar davomida Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida 3 156 722 477,2 so‘mlik tovar va materiallarning o‘g‘irlanishi va zararlanishi aniqlandi va 1 805 000 000 so‘mlik yetkazilgan zararni undirish choralari ko‘rildi.

Xozirgi kunda ushbu aniqlangan holatlar bartaraf etish va keyingi davrlarda takrorlanmasligi uchun tegishli chora-tadbirlar belgilab olingan.

7. Xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik tamoyilini shakllantirish maqsadida o‘tkazilgan profilaktik tadbirlar va mazkur sohada malaka oshirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

“O‘zmetkombinat” AJda 2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora tadbirlar Dasturiga muvofiq Kombinatning “Korrupsiyaga qarshi Siyosati”, “Odob axloq Kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” va “O‘zmetkombinat” AJ da sovg‘alar berish va olish, biznes mehmondo‘stlik va vakillik harajatlarini amalga oshirish bo‘yicha Siyosati” talablari asosida tushuntirish profilaktik tadbirlari o‘tkazildi.

Kombinatda hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishning natijalarini markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida: o‘qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati 30% ni tashkil etdi, ta‘lim shakli an‘anaviy, maxsus va umumiy yo‘nalishda seminar tadbirlar o‘tkazildi. Kombinat ishga qabul qilinayotgan barcha nomzodlar mustaqil ravishda an‘anaviy shaklda o‘qitildi.

Hisobot davrida 2024-yilning mart-iyun oylarida 2 ta umumiy oq‘itish seminarlari tashkil etilib, unda ijro apparatining, tarkibiy bo‘linma va hududiy filiallarning 44 nafar xodimi qatnashgan. Barcha tinglovchilarga axborot materiallari tarqatilgan.

Korrupsiyaviy xavf xatarlarga moyilligi yuqori bo‘lgan lavozimda ishlovchi Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparati xodimlari uchun “Smart Management” MChJ o‘quv markazini taklif qilgan holda “ISO:37001 korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruvi tizimi ichki auditori” mavzusida Kombinatning 55 ta nafar xodimlari Maxsus o‘quv kursi tashkil etildi.

2024-yil 20-sentyabrdan 2-oktyabrgacha Korrupsiyaviy xavf xatarlarga moyilligi yuqori bo‘lgan lavozimda ishlovchi Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparatining 122 nafar xodimlari uchun “Kombinatda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi hamda boshqa qoida buzarlklarni oldini olish mavzusida” maxsus o‘quv kursi seminari tashkil etildi. Seminarda ishtirok etgan xodimlar o‘rtasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va Manfaatlar to‘qnashuvi sohasida” test sinovlari o‘tkazildi.

2024-yil 11-oktyabrdan 30-oktyabrgacha Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparatining bo‘sh ish o‘rinlariga qabul qilingan 133 nafar xodimlarni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonuni”, “O‘zmetkombinat” AJ Axloq Kodeksi va

“O‘zmetkombinat” AJ da manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom talablariga muvofiq xodimlarning axloqiy me‘yorlarga sodiqligini kuchaytirish, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha bilimlarini oshirish maqsadida malaka oshirish o‘quv kursi tashkil etildi. Seminarda ishtirok etgan xodimlar o‘rtasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va Manfaatlar to‘qnashuvi sohasida” test sinovlari o‘tkazildi.

2024-yil 20-noyabrdan 2-dekabrgahca Korrupsiyaviy xavf xatarlarga moyilligi yuqori bo‘lgan lavozimda ishlovchi Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparatining 122 nafar xodimlari uchun “Kombinatda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi hamda boshqa qoida buzarlklarni oldini olish mavzusida” maxsus o‘quv kursi seminari tashkil etildi.

2024-yilning 12-dekabr kuni Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparatidan tayinlangan xavf koordinatorlari uchun maxsus oq‘uv kursi seminari tashkil etilib, unda markaziy ijro apparati, tarkibiy bo‘linma va hududiy filiallarning 33 nafar xodimi qatnashgan. Barcha tinglovchilarga axborot materiallari tarqatilgan.

2024-yil 13-14 dekabr Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparatining bo‘sh ish o‘rinlariga qabul qilingan 41 nafar xodimlarni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonuni”, Axloq Kodeksi va “O‘zmetkombinat” AJda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom talablariga muvofiq xodimlarning axloqiy me‘yorlarga sodiqligini kuchaytirish, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha bilimlarini oshirish maqsadida malaka oshirish o‘quv kursi tashkil etildi.

2024-yil 23-dekabr Kombinat, uning tarkibiy bo‘linmalari va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ijrosini ta‘minlash hamda Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi sohalarida Kombinat tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlari huquqiy ongini oshirish va ularda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti, Komplayens xizmati va Bekobod shahar huquq tartibot organlari ishtirokida 2024-yil 23-dekabr kuni seminar trening tashkil etildi.

2024-yilning 24-dekabr kuni ishlovchi Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparatidan tayinlangan xavf koordinatorlari uchun maxsus oq‘uv kursi seminari tashkil etilib, unda markaziy ijro apparati, tarkibiy bo‘linma va hududiy filiallarning **21 nafar** xodimi qatnashgan. Barcha tinglovchilarga axborot materiallari tarqatilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2023-yil 23-avgustdagi 16-sonli bayonnomasi (Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 6.11.2024-yil 02-07/6122–sonli xati) bilan tasdiqlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida o‘tkaziladigan tadbirlar rejasiga va Kombinat Boshqaruv Raisi-Bosh direktorning 2024-yil 20-noyabrdagi 1539 i/ch-sonli “9 dekabr-Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” mavzusiga bag‘ishlangan yuqori darajadagi “Ochiq eshiklar kuni” tadbirini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i asosida 2024-yil 29-noyabr kuni Kombinat Ijroiya apparati majlislar zalida **“9 dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”**ga bag‘ishlangan Bekobod shahar huquq tartibot organlari va Komplayens xizmati xodimlari ishtirokida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri tashkil etildi.

2024-yil 20-dekabr kuni Ijroiya apparati majlislar zalida O‘zmetkombinat” AJ Kombinat tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va xodimlari orasida Korrupsiya, Manfaatlar to‘qnashuvi, Poraxo‘rlik muammosi va uni bartaraf etish yo‘llari, Odob axloq qoidalari, Kombinatning Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish Siyosati talablari mavzularida Bekobod shahar IIB boshlig‘i Militsiya podpolkovnigi F.X.Ismoilov va Komplayens xizmati xodimlari ishtirokida o‘tkazilgan seminar trening tashkil etildi.

Jamiyat Boshqaruv raisi-Bosh direktorning 2024-yil 30-iyul kuni “*Metallurg Minbari*” gazetasida “Hamkorlikda manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga chek qo‘yamiz” nomli murojaatlari xodimlar va jamoatchilik e’tiboriga havola etildi, shuningdek, Kombinat hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlariga ushbu murojaat mazmun mohiyati to‘liq yetkazilishi uchun “Kombinat xodimlarida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish to‘g‘risida” 2024-yil 8-avgust kuni tasdiqlangan 1148 i/ch-sonli buyruq qabul qilindi.

Jamiyat Boshqaruv Raisi-Bosh direktor birinchi o‘rinbosari R.S.Garaevning 2024-yil 28-avgust kuni “*Metallurg Minbari*” “Korrupsiyaga qarshi kurashish Yangi O‘zbekiston qurilishining muhim asoslaridan biridir” mavzusidagi maqolasi xodimlar va jamoatchilik e’tiboriga havola etildi, shuningdek, Kombinat hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlariga ushbu maqola mazmun mohiyati to‘liq yetkazilishi uchun “Kombinat xodimlarida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish to‘g‘risida” 2024-yil 13-sentyabr kuni tasdiqlangan 1 251 i/ch-sonli buyruq qabul qilindi.

Kombinat rasmiy “Metallurg Minbari” gazetasida Umumiy masalalar bo‘yicha direktor – Boshqaruv Raisining o‘rinbosari A.Sharipovning “Manfaatlar to‘qnashuvi-rivojlanishga jiddiy putur yetkazadi” nomli maqolasini “Ikkilamchiqorametallar” departamenti hududiy filiallari ishchi xodimlarini huquqiy ongini oshirish, korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida tanishtirish ishlari olib borildi.

Kombinat rasmiy “Metallurg Minbari” gazetasida Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti direktori T.T.Xojiyevning “Manfaatlar to‘qnashuvi-Taraqqiyot to‘sig‘i” nomli murojaatlarini “Ikkilamchiqorametallar” departamenti hududiy filiallari ishchi xodimlarini huquqiy ongini oshirish, korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida tanishtirish ishlari olib borildi.

Kombinat Boshqaruv Raisi-Bosh direktori D.T.Axmedovning 2024-yil 27-noyabr kuni “Metallurg minbari” gazetasida “*Korrupsiyaning asosiy omili bu Manfaatlar to‘qnashuvidir*” nomli murojaatlari Kombinat xodimlari va Bekobod shahri aholisiga havola qilindi. Boshqaruv Raisining murojaatlari Kombinat xodimlari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinib, ishlab chiqarish jarayonlari majlislarida bayonnomalar rasmiylashtirgan holda o‘rganilmoqda.

Hisobot davrida Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida Xodimlarni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan 42 ta profilatik tadbirlar o‘tkazildi.

Kombinat xodimlarida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining har qanday shakliga murosasiz madaniyatni shakllantirish maqsadida Komplayens xizmati tomonidan “Singapur tajribasi”, “Shvetsiya tajribasi”, “Finlandiya tajribasi”, Korrupsiyaga qarshi kurashishda Xalqaro tajriba”, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonun haqida Eslatma” va “Korrupsiyaga oid ma’lumotlar o‘quv qo‘llanmasi (Xalqaro tajriba)” qo‘llanmalari ishlab chiqildi va Kombinat rasmiy-veb saytiga joylashtirildi

8. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida sohasida 12 banner va ko‘rgazmali stendlar, 5 ta videorolik va 14 ta audioroliklar, 5 ta qo‘llanma materiallari tayyorlandi va kombinat rasmiy veb–sayti hamda ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy kanallarida e’lon qilimoqda. Kombinatda korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar haqida axborot materiallari tayyorlandi va Kombinat tarkibiy

bo‘linmalari va hududiy filiallariga kirish-chiqish, yig‘ilishlar o‘tkazish majlislar zallariga hamda kombinat rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida Kombinat rasmiy veb-sayti va Kombinatning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy kanallarida hamda OAV larida jami 45 ta materiallar joylashtirildi.

Kombinat markaziy apparati, uning tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida aniqlangan korrupsiya holatlari uchun xabar berish uchun https://t.me/UMK_ANTICOR_BOT “Telegram-bot” kanali ishga tushurilgan. Mazkur telegram bot orqali korrupsion holat bo‘yicha murojaat yuborish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, har bir yuborilgan murojaat ro‘yxatga olinib, ushbu bot orqali murojaatchini xabardor qilib turish imkoniyati mavjud.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan Dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasida har chorakda hisobot tayyorlanib, “E-anticor.uz” platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hamda To‘g-Kon Sanoati va Geologiya Vazirligiga yuborilmoqda.

Anonim So‘rovnoma.

2024-yil 3-iyundan 14-iyungacha So‘rovnomada 78 nafar Kombinat xodimlari qatnashdi, uning natijalariga ko‘ra, 88,5 % Komplayens nazorati tizimi ish faoliyati va natijadorligini yaxshi baholagan, 87,2 % korrupsiya holatlariga guvohi bo‘lganda, ushbu haqida zudlik bilan xabar berishi, 89,7 % Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati va Odod-axloq Kodeksi bilan tanishganligi, 93,6 % korrupsiya holatlari haqida kimga murojaat qilish kerakligini bilishi, 94,9 % ishtirokchilar kombinatda odob axloq qoidalariga rioya qilinishini ijobiy baholangan.

2024-yil 15-16 avgust kunlari Kombinat ishchi xodimlarining korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida tushunchalari va huquqiy ongini oshirish maqsadida Kombinat rasmiy ijtimoiy tarmog‘ida anonim so‘rovnoma natijalariga ko‘ra biznes hamkorlik davomida qancha miqdorgacha sovg‘a olish mumkinligini 40%, Korrupsiya to‘g‘risidagi Qonun qachon qabul qilinganligini 40%, Ishonchsiz kontragent bilan aloqalar xavfini istisno qilish yoki kamaytirish uchun qanday choralar ko‘rishi faqatgina 50% ishtirokchilar to‘g‘ri javob berishgan. So‘rovnomada jami 270 kishi ishtirok etgan (*Anonim so‘rovnoma havolasi https://t.me/umk_matbuot_xiamti/21812*).

2024-yil 12-18 noyabr kunlari Kombinat ishchi xodimlarining korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida tushunchalari va huquqiy ongini oshirish maqsadida Kombinat rasmiy ijtimoiy tarmog‘ida navbatdan tashqari o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

Paydo bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi yoki yuzaga kelishi ehtimoli to‘g‘risida kimni xabardor berishga majbur savoliga 40%; Manfaatlar toqnashuvining salbiy oqibatlaridan birini keltiring savoliga 29%; Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish deganda nima tushuniladi savoliga 64 % ishtirokchilar to‘g‘ri javob berishgan. So‘rovnomada jami 380 kishi ishtirok etgan (*Anonim so‘rovnoma havolasi https://t.me/umk_matbuot_xiamti/22954*).

Kombinatda manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiya holatlari, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma Tahlillari ilova qilinadi.

9. “O‘zmetkombinat” AJ da korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo‘yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart sharoitlarini bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi.

Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida aniqlangan korrupsiogen omillarni inobatga olgan holda, ularning oldini olish va chek qo‘yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart shoitlarni bartaraf etish maqsadida takliflar berish:

- tizimli ravishda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirib borish, shu jumladan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar ishlab chiqilishini takomillashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarori talablariga asosan, tashkilotning har bir funksiyasini korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan tahlil qilib borish, har bir funktsiya bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rib borilishi;

- manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan doimiy monitoring hamda ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazilishini ta'minlash;

- korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazib borilishini hamda korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlarga nisbatan ta'sirchan choralar qo'llanilishini ta'minlash;

- Kombinatda korrupsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha anonim so'rovnomalar o'tkazish;

- korrupsiyaga oid murojaatlarni adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlash, mazkur sohada huquq tartibot idoralari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- korrupsiyaviy xavf xatarlar yuqori bo'lgan lavozim va yo'nalishlarni har chorakda tahlil qilish, natijasi bo'yicha Kombinat rahbariyatiga axborot taqdim etib borish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida IT-texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish orqali korrupsiya ko'rinishlarini barvaqt aniqlash maqsadida:

“Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish” bo'yicha elektron platforma yaratish va bu platformaga Kombinat barcha xodimalri, ularning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish hamda YaMMT (yagona milly mehnat tizimi), FXDYo (fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari), IIV va DSQ elektron bazasi bilan integratsiyasini yo'lga qo'yish ishlarini tashkillashtirish;

“Xaridlar jarayonida affilanganlik holatini aniqlash va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish” bo'yicha elektron platforma yaratish va bu platformaga Kombinatning barcha xodimlari, ularning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish hamda Davlat soliq qo'mitasi elektron bazasi bilan integratsiyasini yo'lga qo'yish;

Sohaga jaratilgan mablag'larni samarali va maqsadli ishlatilishini nazorat qilish maqsadida 1C dasturiy ta'minoti orqali moliyaviy faoliyatni masofaviy monitoring tizimini (kameral nazorat) yo'lga qo'yish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora tadbirlar samaradorligini har chorakda baholash va aniqlangan holatlar asosida qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish.

“O'zmetkombinat” AJ Kuzatuv Kengashi
huzuridagi Komplayens xizmati boshlig'i

T.T.Xojiyev